

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TABIAT HAQIDAGI TUSHUNCHALAR ALLOMALAR QARASHLARI MISOLIDA

Jo'rayeva Dilnoza O'ktam qizi

Buxoro davlat pedagogika insituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Maktabgacha tarbiya yoshi kamol topishning bir-biridan ancha farq qiladigan davrlarini qamrab oladi. Bugungi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalash vazifalarini pedagogika fanining aloxida tarmog'i sifatida e'tirof etiladi.*

***Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, oila, mahalla, o'yin, maktab, bolalar, aqliy tarbiya, rivojlanish, bilim, ko'nikma, malaka, tarbiyachi, ekologiya, ekologik tarbiya, sog'lom turmush tarsi.*

ПРЕДСТАВЛЕНИЯ О ПРИРОДЕ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ КАК ОБРАЗЕЦ ВЗГЛЯДОВ УЧЕНЫХ

Жураева Дилноза Уктам кизи

Бухарский государственный педагогический институт

Преподаватель кафедры дошкольного образования

***Аннотация.** Дошкольное образование охватывает несколько отдельных этапов развития. В настоящее время задачи воспитания детей дошкольного возраста выделены в самостоятельную отрасль педагогической науки.*

***Ключевые слова:** Дошкольное образование, семья, соседство, игра, школа, дети, интеллектуальное развитие, развитие, знания, навыки, квалификация, педагог, экология, экологическое образование, здоровый образ жизни.*

CONCEPTS OF NATURE IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON THE EXAMPLE OF THE VIEWS OF SCIENTISTS

Jurayeva Dilnoza Oktam kizi

Bukhara State Pedagogical Institute

Teacher of the Department of Preschool Education

Annotation. *Preschool education covers several distinct periods of development. Today, the tasks of educating preschool children are recognized as a separate branch of pedagogical science.*

Key words: *Preschool education, family, neighborhood, play, school, children, intellectual development, development, knowledge, skills, qualifications, educator, ecology, ecological education, healthy lifestyle.*

Tashqi muhit tomonidan ko'rsatilayotgan ta'sir inson organizmining o'sishi va rivojlanishi uchun nihoyatda muhimligini chuqur anglash asosida alloma ayrim kasalliklarning suv yoki havo orqali tarqalishi, ularning oldini olish borasida ko'rilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar xususida batafsil ma'lumot berib o'tadi. "Kasalliklarning ba'zilari yuqumli bo'ladi. Bular mohov, qo'tir, chechak, vabo isitmasi, yiringlangan yaralar kabi kasalliklardir.

Yusuf Xos Hojib salomatlik inson hayotining bahtli kechishini ta'minlovchi asosiy omil ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, "Kishi uchun salomatlik kerak, mol-dunyo esa topiladi, qushga hayot kerak, don esa topiladi", "Inson tirik bo'lsa, uning tilagi ravshandir, jon va bosh omon bo'lsa, orzu yaqindir" mazmunidagi fikrlarni ilgari surish bilan shaxsiy salomatlik, shuningdek, atrofdagilarning sihatini saqlash to'g'risida g'amxo'rlik qilish har bir insonning burchi ekanligini aytadi. Shuningdek, alloma inson salomatligini saqlash tabiatni asrash, uning boyliklaridan maqsadga muvofiq foydalanish evaziga kechishin alohida ta'kidlaydi.

Beruniyning "Saydana", "Minerologiya", "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarlarida o'simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning ahamiyati haqida ma'lumot beriladi. Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Eronning tropik hayvonot dunyosini bayon etgan. Ushbu asarda o'simlik va hayvonlarning tashqi muhit bilan aloqasi, ularning xulq-atvori yil fasllarining o'zgarishi bilan bog'liq ravishda o'zgarishi, sovuq kelsa, chumolilarning uyasiga bekinib olishi, qushlarning tog'dan tekisliklarga tushishi va hakoza ifoda etiladi. [2.2;48]

Beruniy yoshlik davrlaridan tabiat shaydosi bo'lgan. Yer qiyofasi o'zgarishi o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'sir etishini, qumni kovlab, uning orasidan chig'anoqni topish mumkin deydi. Sababi, bu qumlar qachonlardir Oksan tubi bo'lgan degan xulosaga keladi u.

Zahiriddin Muxammad Bobur (1483-1530) nafaqat shoir, balki podshoh, tarixchi, mashshoq, ovchi, bog'bon, sayyox va tabiatshunos ham bo'lgan.

“Boburnoma” -Boburning eng yirik asaridir. Asarda Boburning ko'rgan-kechirganlari, yurgan joylarining tabiati, boyligi, odamlari, urf-odatlarini, hayvonoti, o'simliklari tasvirlangan. Asar muhim atamalar va toponamik manbalarga boy. Bobur har bir xududni ma'lum bir tartibda tasvirlaydi. Avvalo joyning geografik o'rni so'ngra qaysi iqlimga mansubligi, xar xil shifobaxsh joylari, o'simlik, qazilmalari, hayvonoti va axolisi beriladi.

Bobur tabiatdagi ba'zi hodisalarni tasvirlaganda ularni mutlaqo mo'jizalarga bog'lamaydi.

Bobur ajoyib giobotanik bo'lgan. U o'simliklarni xosiyatlari, ahamiyatini ta'riflaganki, bog'bon yoki asl tabiatshunos buning uddasidan chiqqa oladi.

Bobur ovga juda qiziqar edi. U O'rta Osiyo, Avg'oniston, Xuroson va Xindistondagi hayvonlarni batafsil bayon etgan. Uningcha: o'sha davrlarda Farg'ona vodiysida antiloplar, tog' qo'ylari va yirik yirtqich qushlar, Samarqandda esa jayronlar, Buxoro antilopi, tog' echkilari, kakliklar va boshqa hayvonlar ko'p bo'lgan.

Qizil kitob - bu yo'qolgan yoki yo'qolish arafasida turgan, yo'qolib borayotgan, kamyob va kamayib borayotgan o'simlik va hayvonot dunyosining genofondini saqlab qolish maqsadida tashkil tilgan ma'lumotlar ro'yxati (reestri) 1940 yil Xalqaro tabiatni qo'riqlash ittifoqchi “xalqaro qizil kitob”ga ma'lumotlar to'plangan va 1966 yil “Qizil kitob faktlari” nomi bilan chop etilgan. Unga keyingi 14 yil ichida yo'qolish arafasida turgan 138 o'simlik turi kiritilgan bo'lib, ularning soni 163-301 taga etgan.

O'zbekiston hayvonot va O'simlik olamining xilma-xilligi hamda boyligi bilan ajralib turadi.

Yo‘qolib borayotgan o‘simlik va hayvonot olamini saqlab qolish va ularning sonini ko‘paytirish maqsadida Respublikamizda «Qizil kitob»lariga (1 tom 1983 yil, 2 tom 1984 yil) sut emizuvchilardan 22 turi, qushlardan 31 turi, sudralib yuruvchilardan 5 turi, baliqlardan 5 turi, yuqori gulli o‘simliklardan 163 turi kiritilgan.

1994 yili O‘zbekiston “Ekologik ta’lim konsepsiyasi” qabul qilingan. Uning asosiy maqsadi, uzluksiz ta’limning hamma bosqichlarida ekologik ta’limni amalga oshirishdan iboratdir.

Ekologiya fanining asosiy maqsadi. Yer sharini, undagi biologik rang-baranglikni, eng muhimi, insonni saqlab qolish. Demak, ekologiya fanining asosiy predmeti – inson. Atrof-muhit bilan inson o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi fanga «*ekologiya*» deyiladi. Sodda qilib aytganda, ekologiya o‘simlik o‘simlik, hayvon bilan hayvon, hayvon bilan o‘simlik, hayvon-o‘simlik-inson, inson bilan inson, narsalar, predmetlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi fan. Ekologiya fani turli-tuman yo‘nalishga ega: ilmiy, iqtisodiy, huquqiy, texnik, falsafiy, estetik, pedagogik, siyosiy, psixologik, gigienik va hokazo.

Jamiyat va tabiat o‘rtasida o‘zaro paydo bo‘lgan yangi ekologik g‘oyalarni ongli ravishda anglab, ularni ilmiy jixatdan xal etish usullari ekologik fikrlash deb ataladi.

Ekologik ta’lim konsepsiyasining maqsad va tamoyillari.

Atrof-muhit sohasidagi ta’lim aholini tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash uchun zarur.

Odamlar XXI asr va undan keyin paydo bo‘ladigan ekologiya muammolari his etmog‘i, ularni hal etish va oldini olish uchun zarur nazariy va amaliy bilim, malaka, ko‘nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo‘lmoqlari lozim.

Bunday ekologik ta’lim dasturi atrof-muhitning ifloslanishini o‘rganish bilan cheklanmasligi kerak. Kelajakda paydo bo‘ladigan ekologik muammolarning kelib chiqish mexanizmini ham hozirdanoq ta’lim-tarbiya tizimiga singdirib, ularni yoshlarga o‘rgatishning shakl va metolarini ishlab chiqish zarur.

Ekologik ta'limning bosh maqsadi – aholining barcha qatlamlarida jumladan, maktab o'quvchilarida atrof-muhitga, uni asrash muammolariga ongli munosaabtni shakllantirishdan iborat. Buning uchun axolining barcha qatlamlari ekologiyaga oid davlat talablari darajasida bilim egallashlari, etarli ko'nikma va malakaga ega bo'lishlari kerak.

Ayni vaqtda aholi sog'ligini mustahkamlashda yordam beradigan omillardan foydalanish, yuqumsiz kasalliklar (yurak-tomir kasalliklari, revmatizm, xavfli o'smalar)ning oldini olish, yangi ishlab chiqarish omillarining sog'liqqa ta'siri uzoq umr ko'rish masalalariga borgan sari katta e'tibor berilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022— 2026-yillarga m o'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi t o'g'risida»gi (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son)
2. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2022. 1-81-b;
3. Jo'rayeva Dilnoza O'ktam qizi „ Mechanism of International Assessment of Professional Qualifications of Future Teachers and Pedagogues in the Conditions of Digitization“. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | e-ISSN: 2792-3983 | www.openaccessjournals.eu | Volume: 3 Issue:12. 5-9p
4. Jo'rayeva Dilnoza O'ktam qizi „RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LAJAK TARBIYACHI PEDAGOGLARNING KASBIY MALAKALARINI TA'LIMDA BAHOLASH“.Spanish international scientific online conference PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE.Part7 December 29th COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS MADRID 2023 97-100b. <https://interonconf.org/index.php/spa/article/view/10145>